



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 84-92 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TASHQI SAVDO OPERATSIYALARINING YAGONA ELEKTRON AXBOROT TIZIMIDA UMIDSIZ QARZDORLIKLARNI HISOBDAN CHIQARISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH



**Tugalov Javlonbek Toshpulatovich**

Bojxona qo‘mitasi xodimi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibining huquqiy asoslari tahlili bayon etilgan. Izlanishlar natijalari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tashqi savdo, tashqi savdo operatsiyalari, “E-kontrakt” elektron axborot tizimi, umidsiz qarzdorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat.

**Аннотация:** В данной статье изложен анализ правовых основ порядка списания безнадежной задолженности в единой электронной информационной системе внешнеторговых операций. По результатам исследований даны научные предложения и практические рекомендации.

**Ключевые слова:** внешняя торговля, внешнеторговые операции, электронная информационная система «E-kontrakt», безнадежная задолженность, внешнеэкономическая деятельность.

**Abstract:** This article presents an analysis of the legal framework governing the procedure for writing off bad debts within the unified electronic information system of foreign trade operations. Based on the research results, scientific proposals and practical recommendations are given.

**Keywords:** foreign trade, foreign trade operations, “E-kontrakt” electronic information system, bad debt, foreign economic activity.

#### Kirish

Jahon iqtisodiyoti sharoitida tashqi savdo munosabatlari davlat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi, global bozorlarda raqobatning kuchayishi hamda tovar va xizmatlar ayirboshlash hajmining ortishi mamlakatlardan tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarishni talab etadi. Shu bois eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish, hisob-kitoblarni shaffof yuritish hamda tashqi savdo jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarning to‘g‘ri yuritilishi, eksport va import shartnomalarining bajarilishini nazorat qilish hamda moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish davlat iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda tashqi savdo sohasini isloh qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tashqi savdo operatsiyalarini monitoring qilish maqsadida “E-kontrakt” tashqi savdo axborot tizimi joriy etilgan. Ushbu tizim tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha ma‘lumotlarni yig‘ish, eksport va import operatsiyalarini kuzatib borish hamda muddati o‘tgan qarzdorliklarni aniqlash imkonini beradi.

Amaliyotda ayrim holatlarda tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Masalan, xorijiy hamkor korxonaning bankrot bo‘lishi, sud qarorlari yoki fors-major holatlari natijasida qarzdorliklarni qaytarish qiyinlashadi. Shu sababli bunday qarzdorliklarni aniqlash va hisobdan chiqarishning aniq huquqiy mexanizmlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” **2021-yil 14-apreldagi 216-son qarori** qabul qilingan. Mazkur qaror tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha yuzaga kelgan umidsiz qarzdorliklarni aniqlash hamda belgilangan tartibda hisobdan chiqarish mexanizmlarini belgilaydi.

Ushbu maqolada mazkur yo‘nalishdagi muammolar mohiyati, ularning ilmiy-amaliy yechimi va iqtisodiy ahamiyati hamda tashqi savdo operatsiyalarida umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibi tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliyotda mavjud muammolar atroflicha o‘rganilib, xorijiy davlatlar tajribasi asosida sohani takomillashtirish bo‘yicha ayrim takliflar ilgari suriladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Mazkur tadqiqot ishi davomida xorijlik olimlar V.Yu.Baykova, Ye.Yu.Davidova, Xiaoli Feng, Venjing Li, Yuanhuai Peng, Youchao Tan, Mary Amity va David Ye. Veinstein va O.A.Sarmanovlarning ilmiy-amaliy fikrlari o‘rganilgan. Bundan tashqari xorijiy davlatlarning mazkur yo‘nalishdagi ilg‘or tajribalari va amaliyoti qiyosiy jihatdan o‘rganilgan [12].

### **Metodologiya**

Tadqiqot ishi davomida ilmiy tadqiqotning tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, induksiya, deduksiya, statistik ma‘lumotlar tahlili, kuzatish usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**


Bojxona sohasida qabul qilingan hujjatlar, joriy qilingan yangi tartib va qulayliklarning barchasi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksportga mahsulot yetkazib berishni ko‘paytirishni rag‘batlantirish, mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarning raqobatdoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi PF-4455-son “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2013-yil 1-yanvardan boshlab bojxona organlarida import shartnomalarini hamda 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-son “Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan eksport

shartnomalarini O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida hisobga qo‘yish borasidagi talab bekor qilindi [2-3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-son Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bilan birga eksport salohiyatini oshirishni rag‘batlantirishga muhim turtki beruvchi hujjat bo‘ldi [4].


Tahlillardan ma‘lum bo‘ladiki, valyutani liberallashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, eksport operatsiyalarini amalga oshiruvchi TIF qatnashchilariga yaratilgan imtiyozlar natijasida, 2020-yilga nisbatan, eksportda TIF qatnashchilari soni 2 barobarga (hozirgi kunda 12 mingdan ortiq), shartnomalar soni 2 barobarga (59 mingdan ortiq) ko‘paygan (1-rasm).



1-rasm. 2020-2025-yillarda Eksportda korxonalar soniga nisbatan eksport shartnomalarining soni o‘zgarishi (dona)

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tahlillar ko‘rsatishicha, importda TIF qatnashchilari soni 20 foizga (hozirgi kunda 4,4 mingdan ortiq), shartnomalar soni 56 foizga (56 mingdan ortiq) ko‘paygan (2-rasm).



2-rasm. 2020-2025-yillarda Importda korxonalar soniga nisbatan import shartnomalarining soni o‘zgarishi (dona)

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tashqi savdoda umidsiz qarzdorlik tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Iqtisodiy munosabatlarda qarzdorlik korxonalar o'rtasidagi moliyaviy hisob-kitoblar jarayonining muayyan holati bilan bog'liq bo'lib, debitor va kreditor majburiyatlari orqali ifodalanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida turli moliyaviy majburiyatlar yuzaga keladi va ular belgilangan muddatlarda bajarilishi iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlansa, majburiyatlarning bajarilmasligi esa iqtisodiy munosabatlarda salbiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Amaliyotda ayrim holatlarda qarzdorlik turli sabablarga ko'ra qaytarilmasligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatlar, qarzdor korxonaning bankrotligi, sud qarorlari, fors-major holatlari yoki boshqa iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'ladi. Natijada, mazkur qarzdorliklar iqtisodiy jihatdan undirib bo'lmaydigan qarz sifatida qaraladigan real vaziyatlar ham mavjud.

Iqtisodiy adabiyotlarda **umidsiz qarzdorlik** qarz majburiyatlarining huquqiy yoki iqtisodiy sabablarga ko'ra undirib bo'lmaydigan qismi sifatida ta'riflanadi. Bunday qarzdorliklarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish va iqtisodiy hisobotlarda real holatni ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Xorijlik tadqiqotchi olimlar V.Yu.Baykova, Ye.Yu.Davidova "Shubhali va umidsiz qarzdorliklarni o'z vaqtida aniqlash, shubhali qarzlarni bo'yicha zaxiralarni to'g'ri shakllantirish hamda umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish lozim" – deb hisoblashadi [5].

Albatta iqtisodiyotda o'z vaqtida ko'rilgan har qanday chora katta iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Xitoylik tadqiqotchilar Xiaoli Feng, Venjing Li, Yuanhuai Peng, Youchao Tanlar tomonidan AQSH va Xitoy o'rtasidagi kelishmovchiliklarning mamlakat tashqi savdosiga ta'siriga oid tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, xalqaro savdodagi kelishmovchiliklar individual korporativ xatti-harakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (eksport operatsiyalarining kamayishiga, mahalliy raqobatdosh firmalarning mahsuldorligi oshishiga, eksportchilarning tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalari ortishiga) [6].

Xalqaro kelishmovchiliklar nafaqat nizolashayotgan davlatlarga balki ularning ittifoqchisi yoki asosiy savdo hamkori bo'lgan davlatlarga ham o'zining ta'sirini o'tkazishi bugungi zamonda amalda o'zining tasdig'ini topmoqda.

Mary Amity va David Ye. Veinstein "xalqaro savdo bilan bog'liq vaqt oralig'ining (time lags) uzoqligi eksport qiluvchilarni ichki savdoga qaraganda aylanma mablag'larni moliyalashtirishga (working-capital financing) ko'proq bog'liq qilib qo'yadi" – deb hisoblashadi [7].

Bu tadqiqotchilar aytganidek, faqatgina vaqt masalasidagi vaziyat bilan emas balki boshqa manfaatdorlik sabablaridan ham bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari doirasida yuzaga kelgan qarzdorliklarni tartibga solish maqsadida maxsus huquqiy mexanizmlar joriy etilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining "Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" **2021-yil 14-apreldagi 216-son qaroriga** muvofiq tashqi savdo

shartnomalari bo'yicha yuzaga kelgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan qarzdorliklar "E-kontrakt" tizimidan hisobdan chiqarilishi mumkin [9].

Bu mexanizm tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarni tizimli yuritish, muddati o'tgan qarzdorliklarni aniqlash va tashqi iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Nizomda keltirilgan ta'rifga ko'ra, umidsiz qarzdorlik – TSOYAEATda shakllangan, biroq tashqi savdo shartnomalari tomonlarining majburiyatlari sud qaroriga asosan bekor qilinishi tufayli yoki bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarzdorlik, shuningdek, TSOYAEATda shakllangan, biroq tashqi savdo shartnomalari tomonlari o'rtasida haqiqatda mavjud bo'lmagan, tomonlarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra tovarlarni transportda tashish va saqlash jarayonida yaroqsiz bo'lib qolgan, "yo'q qilish" va "davlat foydasiga voz kechish" bojxona rejimlariga rasmiylashtirilgan yoxud davlat organi tomonidan musodara yoki yo'q qilingan, shu jumladan, kredit-nota asosida taqdim etilgan chegirma natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikdir.

Mazkur qarorda belgilangan tartibotning mazmuni shundaki, qaror bilan tasdiqlangan Nizom tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelgan umidsiz qarzdorliklarni aniqlash, hujjatlashtirish va belgilangan tartibda hisobdan chiqarish mexanizmlarini belgilaydi. Nizom tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun aniq huquqiy asos yaratib, tashqi savdo shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni tizimli ravishda yuritishga xizmat qiladi.

Nizomga muvofiq quyidagi asosiy masalalar tartibga solingan:  
qarzdorliklarni aniqlash va ularni tasdiqlovchi hujjatlar tartibi;  
eksport va import shartnomalari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarni hisobdan chiqarish mexanizmi;  
vakolatli davlat organlarining vakolatlari;  
hisobdan chiqarish jarayonini nazorat qilish tartibi.

Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarni tartibga solish, muddati o'tgan qarzdorliklarni to'g'ri baholash hamda tashqi iqtisodiy faoliyatda shaffoflikni ta'minlashda umidsiz qarzdorliklar sifatida e'tirof etiladigan holatlar ham belgilangan. Bugungi kunda umidsiz qarzdorliklar sifatida e'tirof etiladigan holatlar qatorini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz tashqi savdo amaliyotida qonunchilik va "E-kontrakt" tizimi asosida tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda.

Birinchidan, hujjatlar hali ham qog'oz shaklida yuritilishi jarayonni sekinlashtirishi va qaror qabul qilish muddatini bir muncha vaqtga uzaytirishi mumkin. Bu ayniqsa, bir nechta davlat organlari ishtirokidagi majburiyatlarni bajarish holatida murakkablikni yanada oshiradi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlari uchun mazkur jarayonda byurokratik to'siqlar mavjud. Masalan, hujjatlarni taqdim etishda qo'shimcha rasmiy so'rovlar yoki ma'lumotlarni to'liq topshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu ham tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligi va tadbirkorlik muhiti uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda hujjatlar to'liq va tartibli yuritilmagani tufayli, qarzdorlikni hisobdan chiqarish jarayoni kechiktirilishi va statistik ma'lumotlar to'g'ri shakllantirilmashligi mumkin.

Natijada, yuqoridagi omillar tashqi savdo operatsiyalarining tezkorligi, shaffofligi va moliyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi korxonalar va davlat organlari uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan bugungi davrda mazkur muammolarni hal qilishning keng imkoniyatlari mavjud. Bunda, axborot almashinuvini to'liq avtomatlashtirish, hujjatlarni raqamli formatga o'tkazish va tadbirkorlar uchun interaktiv platformalar orqali qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish eng samarali yechimlar hisoblanadi.

Jahon amaliyotida tashqi savdo operatsiyalarini boshqarishda raqamli platformalar va yagona elektron axborot tizimlari keng qo'llaniladi. Bu tizimlar tashqi savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, hujjat ayirboshlashni tezlatish va moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida bir qator rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rib chiqiladi.

Singapurda tashqi savdo operatsiyalari **"TradeNet"** elektron platformasi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim eksport va import hujjatlarini avtomatik ravishda qayta ishlash imkonini beradi hamda davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini samarali tashkil etadi.

"TradeNet" orqali tashqi savdo operatsiyalarini rasmiylashtirish odatda bir necha daqiqa ichida amalga oshiriladi. Shuningdek, tizim moliyaviy hisob-kitoblar, bojxona deklaratsiyalari va transport hujjatlarini integratsiyalaydi, bu esa tadbirkorlar uchun vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi [10].

Janubiy Koreyada tashqi savdo operatsiyalari **"UNI-PASS"** elektron bojxona tizimi orqali to'liq raqamli tarzda boshqariladi. Bu tizim orqali bir platformada eksport va import deklaratsiyalari, to'lovlar va logistika ma'lumotlari nazorat qilinadi.

"UNI-PASS" tizimi tashqi savdo jarayonlarida shaffoflikni ta'minlaydi, hujjatlar bilan bog'liq byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va tashqi savdo shartnomalari bo'yicha umidsiz qarzdorliklar yuzaga kelishi xavfini minimallashtiradi [11].

Yevropa Ittifoqida esa tashqi savdo operatsiyalari **"Single Window"** tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu tizim tadbirkorlarga barcha davlat organlari bilan yagona elektron portal orqali muloqot qilish imkonini beradi.

"Single Window" orqali eksport va import deklaratsiyalari, litsenziyalar, sertifikatlar va boshqa hujjatlar yagona platformada yuritiladi. Bu esa tashqi savdo operatsiyalarini tezkor, shaffof va samarali tashkil etish imkonini beradi, shuningdek davlat organlari uchun monitoring va hisobot tayyorlash jarayonini osonlashtiradi [12].

Xorijiy davlatlar tajribasidan ko'rinadiki, rivojlangan davlatlarda tashqi savdo operatsiyalarini raqamli tizimlar orqali boshqarish bir qator afzalliklarni beradi:

tashqi savdo operatsiyalarini tezkor va avtomatlashtirilgan tarzda rasmiylashtirish;  
hujjatlashtirish yoki hujjatlar bilan bog'liq byurokratik to'siqlarni kamaytirish;  
moliyaviy va huquqiy xavf-xatarlarni minimallashtirish;

davlat organlari uchun monitoring va statistik hisobotlarni aniq va to'liq shaklda yuritish.

Bunday tajriba O'zbekistonda ham tashqi savdo operatsiyalari monitoringi va umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun qo'llanilishi mumkin.

Tashqi savdoni erkinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 17-dekabrda PF-250-son Farmonida tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha umidsiz debitor-kreditor qarzdorliklarni "E-kontrakt" tashqi savdo axborot tizimida elektron tarzda hisobdan chiqarish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash topshirig'i berilgan [13].

Bugungi kunda, umidsiz qarzlarni hisobdan chiqarish Hududiy komissiya, Soliq qo'mitasi, Hukumat komissiyasi bosqichlari asosida 3 oydan 18 oygacha muddat talab qilinadigan mexanizm asosida amalga oshirilmoqda.

Umidsiz qarzdorliklarni elektron tarzda hisobdan chiqarish bo'yicha hujjat loyihasi ishlab chiqilib, joriy yilning 30-yanvar kuni "E-kontrakt" tashqi savdo axborot tizimini takomillashtirish bo'yicha Ishchi guruhi a'zolari bilan muhokama qilinib, yakuniy tahriri shakllantirilgan.

Loyihada tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va elektron tarzda amalga oshirish, murojaatlarning ijro holatini onlayn tarzda kuzatib borish, umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonlarini yakka, umumiy va avtomatik tartiblarga ajratish nazarda tutilgan.

Mazkur loyihani qabul qilinishi natijasida, xo'jalik yurituvchi subyektlarning umidsiz qarzdorlikni tizimda elektron tarzda hisobdan chiqarish muddati 3 — 18 oydan 15-20 kunga qisqaradi.

### **Xulosa va takliflar**

Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonini yanada soddalashtirish, shaffofligini ta'minlash va ma'muriy yuklamani kamaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Birinchidan, **umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonini to'liq elektron shaklga o'tkazish alohida zaruratga ega.** Tashqi savdo shartnomalari bo'yicha umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartib-taomillarini "E-kontrakt" tashqi savdo axborot tizimi orqali amalga oshirish amaliyotini to'liq joriy etish lozim. Bu hujjatlar aylanmasini qisqartirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda qaror qabul qilish muddatlarini sezilarli darajada tezlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, **davlat organlari axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilishni takomillashtirish talab etiladi.** Bojxona qo'mitasi axborot tizimini "Elektron hukumat" idoralararo integratsiya platformasiga ulash orqali Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Markaziy bank va boshqa davlat organlarining axborot tizimlari bilan avtomatik ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu tadbirkorlik subyektlarining tugatilishi, bankrotlik holati yoki yakka tartibdagi

tadbirkorning vafot etganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish imkonini beradi.

**Uchinchidan, umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibini soddalashtirish va aniq mexanizmlarni belgilash kerak bo'ladi.** Amaldagi tartibda barcha holatlarda qaror Hukumat komissiyasi bayoni asosida qabul qilinayotganligi jarayon uchun ortiqcha muddat sarflanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan ayrim holatlarda qarzdorlikni bir vakolatli organning tasdiqlovchi ma'lumoti asosida yoki avtomatik tarzda hisobdan chiqarish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**To'rtinchidan, tashqi savdo bilan shug'illanuvchilarning murojaatlarni onlayn qabul qilish va kuzatish imkoniyatini joriy etish zamonaviy yechimlardan biri sanaladi.** "E-kontrakt" tizimi orqali tadbirkorlik subyektlariga o'z murojaatlarining ko'rib chiqilish bosqichlarini onlayn rejimda kuzatish imkoniyatini yaratish zarur. Bu jarayonning shaffofligini oshiradi hamda tadbirkorlar uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytiradi.

Beshinchidan, **umidsiz qarzdorliklarni avtomatik hisobdan chiqarish mexanizmlarini joriy etish xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.** Tizimga integratsiya qilingan davlat axborot resurslari asosida ayrim holatlarda (masalan, yakka tartibdagi tadbirkorning vafot etishi, kredit-nota taqdim etilishi va boshqa obyektiv holatlarda) qarzdorliklarni avtomatik ravishda hisobdan chiqarish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Umidsiz qarzdorliklarni avtomatik hisobdan chiqarishning quyidagi uchta tartibini qo'llash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:**

avtomatik tartib – qarzdorliklarni davlat idoralari axborot tizimlari bilan integratsiya asosida inson aralashuvisiz tizim tomonidan hisobdan chiqarish tartibi;

yakka tartib – qarzdorliklarni vakolatli davlat organi tomonidan tizim orqali ko'rib chiqish, tasdiqlash va hisobdan chiqarish tartibi;

umumiy tartib – qarzdorliklarni hududiy va hukumat komissiyalari tomonidan tizim orqali ko'rib chiqish, tasdiqlash va hisobdan chiqarish tartibi.

Bu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarning shaffofligi va samaradorligi oshadi, tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy yuklama kamayadi hamda davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvi yanada tezkor va samarali tashkil etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi PF-4455-son "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-son "Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni.

4. Байкова В.Ю., Давыдова Е.Ю. Особенности создания резервов по сомнительным долгам в бухгалтерском и налоговом учете. Сборник трудов научно-практической конференции преподавателей, аспирантов, магистрантов и студентов экономического факультета Новосибирского ГАУ. 2018. С.11-13.

5. Xiaoli Feng, Wenjing Li, Yuanhuai Peng, Youchao Tan. "International trade friction and the cost of debt: Evidence from China". Pacific-Basin Finance Journal Volume 67, June 2021, 101550,

6. Mary Amity, David E. Weinstein "Exports and financial shocks." Page-24. National Bureau Of Economic Research, 1050, Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138, December 2009.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 216-son "Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori.

8. <https://www.tradenet.gov.sg/tradenet/login.jsp>

9. <https://www.unipass.or.kr/uni-pass/history/>

10. [https://taxation-customs.ec.europa.eu/eu-single-window-environment-customs\\_en](https://taxation-customs.ec.europa.eu/eu-single-window-environment-customs_en)

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi PF-250-son "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.

12. Adiljonovich, S. O. (2025). O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARI TUSHUMINING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 249-256.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

